

ABU MANSUR AL-MOTURIDIY- KALOM ILMINING ULUG' VAKILI

Boydedayev Dostonbek Xusniddin o'g'li

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Tel: 93 190-26-06 e-mail: boydedayevdostonbek7@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Movarounnahr o'lkasi hayotida IX-XII asrlarda sodir bo'lgan renessans jarayonining yorqin vakillaridan biri, islom dini taraqqiyoti va aholi orasida yanada keng yoyilishiga hissa qo'shgan shaxs, kalom ilmi ravnaqi yo'lida xizmat qilgan buyuk ulamo- Abu Mansur al-Moturidiyning hayot yo'li, ilmiy faoliyati hamda avlodlarga qoldirgan ilmiy merosi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Abu Mansur al-Moturidiy, Samarqand, Moturid qishlog'i, kalom ilmi, islom dini, axloq, "Kitob at-Tavhid", "Ta'vilot ahl as-sunna".*

АБУ МАНСУР АЛЬ-МОТУРИДИ – ВЕЛИКИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ НАУКИ СЛОВА

Аннотация: *В данной статье рассматривается один из ярких представителей ренессансного процесса, происходившего в жизни региона Моваруннахр в IX-XII веках, человек, способствовавший развитию ислама и более широкому его распространению среди населения, обсуждаются жизненный путь, научная деятельность и научное наследие великого учёного, послужившего развитию науки слова, - Абу Мансура аль-Мотуриди.*

Ключевые слова: *Абу Мансур аль-Мотуриди, Самарканд, аул Мотуридов, знание слова, исламская религия, мораль, «Китаб ат-Таухид», «Тавилот ахль ас-сунна».*

ABU MANSUR AL-MOTURIDI - THE GREAT REPRESENTATIVE OF THE SCIENCE OF THE WORD

Abstract: *In this article, one of the bright representatives of the renaissance process that took place in the life of the Movarounnahr region in the 9th-12th centuries, a person who contributed to the development of Islam and its wider spread among the population, a great scholar who served the development of the science of the word - Abu Mansur al-Moturidi's life path, scientific activity and scientific legacy left to generations are discussed.*

Key words: *Abu Mansur al-Moturidi, Samarkand, Moturid village, knowledge of the word, Islamic religion, morality, "Kitab al-Tawhid", "Ta'wilat ahl as-sunna".*

KIRISH

IX asrga kelganda Movarounnahr o'lkasida nisbatan tinch siyosat va boshqaruv tizimining o'rnatilganligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik sohasidagi barqaror rivojlanish hamda adolatli hukumat qaror topishi natijasida aholining salohiyati har tomonlama yuksala boshladi. Ayniqsa, ilmga yaratilgan keng imkoniyatlar hamda ilm ahlini rag'batlantirishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi natijasida Movarounnahr o'lkasi tom ma'noda ilm-fan markazlaridan biriga aylandi hamda dunyo ilm-fani va musulmon olami uchun ko'plab ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, diniy ilmlar bilan shug'ullanuvchi ulamolar ham yurtimiz hududidan bu davrda ko'plab yetishib chiqdi. Ana shunday ulamolardan biri Abu Mansur al-Moturidiy edi.

Asosiy qism: Abu Mansur Moturidiy sunniy e'tiqodidagi ikki yirik ta'limotlardan biri bo'lmish moturidiya ta'limotining asoschilaridan hisoblanadi. Uning to'liq ismi Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiydir[1]. Buyuk kalom imomi va fiqh olimi hisoblangan Moturidiy 870-yil Samarqandning Moturid qishlig'ida tug'ilgan bo'lib, uning taxallusi ham shu qishloqqa nisbatan olingan[2]. Moturid qishlog'i hozirda Samarqand viloyati Jomboy qishlog'i hududiga to'g'ri keladi. Moturidiy dastlabki ta'limni shu qishloqda olib, keyinchalik Movarounnahrning diniy va ma'rifiy markazlaridan bo'lgan Samarqandda davom ettiradi.

Ba'zi manbalarda uning Samarqanddagi "Iyoziy" madrasasida ta'lim olgani qayd etilgan.

Moturidiy ko'plab olim va ulamolarni, jumladan, Abu Bakr Ahmad al-Juzjoni, Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy, Imom A'zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yahyo al-Balxiy, Muhammad ibn al-Fadl kabilarni o'zining ustozlari deb bilgan.

Moturidiy fiqh va kalom ilmlaridan dars bergan.

Kalom- o'rta asr musulmon adabiyotida: diniy-falsafiy mavzudagi barcha mulohazalar, shu o'rinda, alohida ma'noda islom dinidan kelib chiqadigan fikrlarda diniy aqidaparastlikka ergashish emas, balki aqliga asoslangan sharhni beruvchi spekulyativ tartib[3].

Moturidiy yashagan davrda siyosiy tuzumdagi ayrim beqarorliklarni bartaraf etish, musulmonlarning turli firqalarga bo'linib ketishiga yo'l qo'ymaslik zarurati ulamolarni yangi izlanishlarga majbur qildi. Ushbu omillar islomning fikrlovchi doiralarida kalom bahslarining paydo bo'lishiga zamin tayyorladi. Islomda "kalom" yo'nalishiga asos bo'lgan bunday bahslarni olib boruvchilarga nisbatan "mutakallimin", ya'ni "so'zlashuvchilar" atamasi qo'llanila boshladi[4]. Shu bilan birga, kalom yo'nalishi to'lig'icha Abu Mansur Moturidiyning ta'limotidan boshlangan.

O'zi Moturidiy ancha yoshligidan fiqh va kalom ilmiga oid ko'plab masalalarga qiziqib, hanafiya mazhabi olimlaridan dars olgan. Umri davomida faqihlar va muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan. U islom dinining hanafiya mazhabini Movarounnahrda tarqatish va o'zidan keyingi avlodga o'zgarishsiz yetkazish yo'lida xizmat qilgan.

Moturidiy hanafiy ta'limotining O'rta Osiyo xalqlari urf-odatlarini bilan bog'liq ekanligini o'z qarashlari orqali ko'rsatib berdi. O'z navbatida, Moturidiy alohida bir mazhab tuzgan emas, balki Imomi A'zam Abu Hanifaning aqidga oid fatvo va ta'limotlarini atrofga yoygan.

Mashhur turk olimi Toshko'prozodaning ta'kidlashicha: "Ahli-sunna val jamoada kalom ilmi raislari 2 kishi bo'lib, ulardan biri Hanafiy, ikkinchisi Shofi'iydir. Hanafiy Abu Mansur al-Moturidiy, Shofi'iy esa Abul Hasan Ash'ariydir".

Imom Moturidiy ta'limoti mo'taziliylar kabi faqat aqlga suyanish emas, balki aql bilan naqlni qo'shib foydalanishni zarur deb o'rgatadi. Moturidiyning mehnatlari natijasida Movarounnahr hududida turli xildagi mayda oqimlar ko'payib ketishiga yo'l qo'yilmadi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlari ta'kidlashlaricha, Moturidiy yashagan davrda zindiqlik, ya'ni ateizm, dinga ishonmaslik, xudosizlik paydo bo'lgan va ular shu yo'l bilan musulmonlarga ziyon yetkazmoqchi bo'lishgan. Lekin Moturidiy va uning shogirdi Imom Abul Qosim al-Hakim as-Samarqandiyning harakatlari bilan xalqni ularga ergashib ketishining oldi olingan.

Ana shunday buyuk xizmatlar sohibi, "Kitob at-Tavhid" va "Ta'vilot ahl as-sunna" kabi yirik asarlar muallifi Abu Mansur al-Moturidiy 944-yilda Samarqandda vafot etgan[5]. Moturidiy shahar chekkasidagi Chokardiza qabristoniga dafn etilgan.

Moturidiyni turli nomlar bilan ulug'lashgan. Jumladan, "Imomul-xudo" (Hidoyatga eltuvchi imom), "Al-Imom az-Zohid" (Dunyoni tark etgan imom) kabi nomlar bilan ulug'langan[6].

Yurtimizda 2000-yil noyabrda Moturidiy tavalludining 1130-yilligi nishonlanib, yodgorlik majmuyi barpo etildi.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatib turibdiki, Abu Mansur al-Moturidiy o'zbek xalqi uchun doimo eng ardoqli va eng faxrli ajdodlarimiz qatoridan ajralmas o'rin egallashi ayni haqiqatdir. Chunki har bir o'zbekistonlik Moturidiyning islom dini ravnaqi uchun qilgan ishlari hamda buning natijasida butun musulmon olamiga foyda keltiradigan faoliyat olib borganini tushunib yetganda cheksiz faxr tuyg'usini his qilishi shubhasizdir. Oddiy misol, musulmon dinining turli mayda bo'laklarga, oqimlarga bo'linib ketmasligi hamda musulmonlar uchun dinning mohiyati to'g'ri yoritib berilib, ularning bir butun birlik sifatida yashashi negizida Moturidiy shaxsiyati turgani bizga cheksiz faxr beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI:

1. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha). -T.: Sharq, 2017. -160 b.
2. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi (I kitob). -T.: VNESHINVESTPROM, 2019. -637 b.
3. <https://arboblar.uz/uz/people/abu-mansur-al-maturidi> 09.01.2024
4. <https://islom.ziyouz.com/aqid/abu-mansur-al-moturidiy> 09.01.2024

5. <https://moturidiy.uz/oz/news/1536> 09.01.2024
6. <https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-abu-mansur-moturidiy-870-945/>
09.01.2024